

**TO'NYUQUQ BITIKDOSHINING TARIXIY AHAMIYATI**

*Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti f.f.b.f.d.*

*Katta o'qituvchisi Xamroqulova Guluzro Dilmurodovna*

*Va stajyor o'qituvchisi Karimova Dilobod Halimovna*

*va o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

*Ergasheva Muslima Omonjon qizi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada "To'nyuquq" bitikdoshi tarixiy yodgorlik sifatida o'r ganilib, uning yaratilish davri, mazmuni, til xususiyatlari va tarixiy ahamiyati ilmiy tahlil qilinadi. Ushbu bitik orqali qadimgi turkiy xalqning siyosiy va ma'naviy tafakkuri, harbiy strategiyasi va ijtimoiy tuzilmasi haqida muhim xulosalar chiqariladi.

**Аннонс:** В данной статье рассматривается надпись "Тоныюкука" как исторический памятник. Анализируются время её создания, содержание, языковые особенности и историческое значение. Благодаря этому источнику можно сделать важные выводы о политическом мышлении, военной стратегии и социальной структуре древнетюркского народа.

**Annotation:** This article analyzes the "Tonyukuk" inscription as a historical monument, focusing on its creation period, content, linguistic features, and historical significance. The study reveals essential insights into the political thought, military strategy, and social structure of the ancient Turkic people

**Kalit so'zlar:** To'nyuquq bitikdoshi, O'rxon-Unasoy yozma yodgorliklari, qadimgi turkiy til, siyosiy tarix, falsafa va madaniyat, turk xalqlari, tarixiy ahamiyat, yodgorliklar, qadimgi turk davlati, lingvistik tahlil

**Ключевые слова:** Надпись Тоньюкука, Орхон-Енисейские памятники, Древнетюркский язык, политическая история, философия и культура, тюркские народы, историческое значение, памятники, древнетюркское государство, лингвистический анализ

**Keywords:** Tonyukuk inscription, Orkhon-Yenisey monuments, Old Turkic language, political history, philosophy and culture, turkic peoples, historical significance, monuments, ancient Turkic state, linguistic analysis

Turkiy xalqlarning qadimiylar yozma yodgorliklari orasida "To'nyuquq bitikdoshi" alohida o'rin tutadi. Bu bitik Markaziy Osiyo tarixini, qadimgi turkiylarning ijtimoiy-siyosiy hayotini va dunyoqarashini o'r ganishda muhim manba

hisoblanadi. Ushbu maqolada To‘nyuquq bitikdoshi yaratilgan tarixiy sharoit, uning mazmun-mohiyati va ilmiy jihatlari tahlil qilinadi<sup>1</sup>.

### Bitikdoshlikning yaratilish tarixi

To‘nyuquq bitikdoshi VIII asrda, ya’ni Qadimgi Turk xoqonligi davrida yaratilgan. Ushbu yozuv hozirgi Mo‘g‘uliston hududidagi Orxon daryosi bo‘yida topilgan. U toshga o‘yib yozilgan bo‘lib, qadimgi turkiy run yozuvida bitilgan. Bitikda voqealar ishtirokchisi bo‘lgan To‘nyuquq shaxsan o‘z hayoti va faoliyatini haqida hikoya qiladi. Bu esa uni nafaqat tarixiy, balki avtobiografik ahamiyatga ega yodgorlikka aylantiradi.

### To‘nyuquq – davlat arbobi va sarkarda

To‘nyuquq – turkiy xalqlar tarixida muhim shaxs. U Ikkinci Turk xoqonligining nufuzli maslahatchisi, sarkarda va donishmandi bo‘lgan. Bitikda u o‘zining Bilga xoqon va Kultegin bilan birga yuritgan siyosiy-ijtimoiy faoliyatini, urushlarda erishgan g‘alabalarini hikoya qiladi. Uning davlat boshqaruvidagi roli va donoligi Turk davlatchiligi tarixida muhim iz qoldirgan.<sup>2</sup>

### Bitikdoshlik mazmuni va tili

To‘nyuquq bitikdoshi mazmunan juda boy. Unda turk xalqining boshdan kechirgan qiyinchiliklari, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashi, urush strategiyalari, xalqni uyg‘otish va birlashtirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlar yoritilgan. Til jihatidan qaralganda, bitik qadimgi turkiy tilning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning sintaksisi, leksikasi va uslubiy vositalari zamonaviy turkiy tillar rivojiga ta’sir ko‘rsatgan.

### Ilmiy tadqiqotlar va bugungi ahamiyati

To‘nyuquq bitikdoshi ustida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, V. Tomsen, S. Malov, A. M. Shcherbak kabi tadqiqotchilar uni o‘rganishda muhim hissa qo‘sghanlar.<sup>3</sup> Hozirgi kunda bu bitik faqat tarixchilar emas, balki tilshunoslar, madaniyatshunoslar va antropologlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Undagi qadimiy turk madaniyati, urf-odatlari, diniy qarashlari haqida ma’lumotlar mavjud.

### Bitikdoshning yaratilish tarixi va arxitekturasi

"To‘nyuquq" bitikdoshi 712-716-yillar oralig‘ida, To‘nyuquqning o‘zi tomonidan yozdirilgan. U marmar toshga o‘yib yozilgan bo‘lib, 62 satrdan iborat. Bitik ikki to‘rt qirrali tosh ustunga yozilgan bo‘lib, janubiy ustun balandligi 170 cm, shimoliy ustun esa 160 cm. Ulan-Bator shahridan 66 km janubi-sharqda joylashgan

### To‘nyuquqning shaxsi va faoliyati

<sup>1</sup> 1. Tomsen V. Orxon yozuvlari haqida. Sankt-Peterburg, 1893

<sup>2</sup> 2. Nauchniyimpuls.ru. "Историко-лингвистический анализ надписи Тоньюкука", 2023

<sup>3</sup> 3. Fayllar.org. Erkinov M., Mirzayev B. "To‘nyuquq yodgorligining o‘rnii va ahamiyati", 2023.

To'nyuquq taxminan 645-726-yillar oralig'ida yashagan. U Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo'lib, Ikkinchi Turk xoqonligining shakllanishi va yukshalishida muhim rol o'ynagan. Bitikda To'nyuquq o'zining harbiy yurishlari, siyosiy qarorlari va xalqni boshqarishdagi donoligi haqida hikoya qilinadi.<sup>4</sup>

#### Falsafiy va ma'naviy asoslar

Bitikda To'nququq o'zining xalqiga bo'lgan sadoqati, vatanparvarligi va donoligini namoyon etadi. Uning so'zlari orqali turk xalqining o'zlik anglash jarayoni, milliy birlik va mustaqillikka intilishi aks etadi. Bu jihatlar bitikni nafaqat tarixiy, balki falsafiy va ma'naviy jihatdan ham muhim yodgorlikka aylantiradi.

"To'nyuquq" bitikdoshi ustida ko'plab olimlar tadqiqot va izlanish olim borganlar. V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M. Melioranskiy kabi tadqiqotchilar bitikni o'qish, tarjima qilish va tahlil qilish orqali uning tarixiy ahamiyatini ochib bergenlar. Bugungi kunda bu bitik faqat tarixchilar emas, balki tilshunoslar, madaniyatshunoslar va antropologlar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

To'nyuquq bitikdoshi – bu faqatgina toshga bitilgan yozuv emas, balki bir xalqning tarixiy xotirasi, tafakkuri va orzularining timsolidir. U turkiy xalqlarning buyuk o'tmishi, jipsligi va o'zlik anglash jarayonidagi muhim qadamlardan biridir. Uning o'r ganilishi bizga o'z tariximizga chuqurroq nazar tashlash, ajdodlarimizning donoligidan saboq olish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Томсен В. Надписи Орхона. СПб., 1893.
2. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. СПб., 1899.
3. Мелиоранский П.М. Памятники древнетюркской письменности. Казань, 1900.
4. Erdal M. A Grammar of Old Turkic Brill Academic Publishers, 2004.
5. Kononov A.N. Grammatika sovremennoogo turetskogo yazyka. M.: Nauka, 1959.
6. Openidea.uz. "To'nyuquq bitikdoshi – tarixiy va lingvistik tahlil", 2022-yil.
7. Nauchniyimpuls.ru. "Историко-лингвистический анализ надписи Тоньюкука", 2023-yil.
8. Uz.wikipedia.org – To'nyuquq bitikdoshi maqolasi.
9. Fayllar.org – Erkinov M., Mirzayev B. "To'nyuquq yodgorligining o'rni va ahamiyati".

<sup>4</sup> 4. Openidea.uz. "To'nyuquq bitikdoshi – tarixiy va lingvistik tahlil", Aaa